

Коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини ошириш бўйича қонун қабул қилинди

// 24.06.2026

<https://uzkimyosanoat.uz/uz/press/news/korruptsiyaga-qarshi-kurashish-samaradorligini-oshirish-buyic>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga korruptsiyaga qarshi kurashish samaradorligini oshirish, korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida

Qonunchilik palatasi tomonidan 2026-yil 25-mayda qabul qilingan
Senat tomonidan 2026-yil 13-iyunda ma'qullangan

QONUNNING 10 TA ASOSIY YANGILIGI

- KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR BO'YICHA ELEKTRON REYESTR JORIY ETILDI**
Korruptsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning elektron reyestri yuritilishi belgilandi. Reyestrga kiritilgan shaxslarga davlat xizmatiga qabul qilish, davlat mukofotlari bilan taqdirlash, saylanadigan va tayinlanadigan ayrim lavozimlarga nomzod etib ko'rsatish hamda davlat xaridlarida ishtirok etish bo'yicha qator cheklavlar tatbiq etiladi.
- "KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR" TUSHUNCHASI QONUNAN BELGILANDI**
Jinoyat kodeksida ilk bor "korruptsiyaga oid jinoyatlar" tushunchasiga rasmiy ta'rif berildi va ushbu toifaga kiruvchi 18 turdagi jinoyat aniqlandi.
- KOMPLAENS VA KORRUPSIYAGA QARSHI ICHKI NAZORAT TUZILMALARINING HUQUQIY ASOSLARI YARATILDI**
Huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo'lgan yangi institut – komplens va korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining huquqiy maqomi belgilandi. Ularning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari qonun darajasida mustahkamlandi.
- KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING YAXLIT MEKANIZMI JORIY ETILDI**
Qonun bilan maishiy korruptsiyadan tortib, yuqori darajadagi mansabdor shaxslar tomonidan sodir etiladigan korruptsiyaviy jinoyatlarga qarshi ta'sirchan huquqiy va tashkiliy mexanizmlar belgilandi.
- KOMPLAENS XODIMLARINING XAVFSIZLIK KAFOLATLARI KUCHAYTIRILDI**
Komplens tuzilmalarining mustaqil va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida ularning xodimlari uchun huquqiy, ijtimoiy va protsessual xavfsizlik kafolatlari joriy etildi.

6 BARCHA DAVLAT ORGANLARIDA KOMPLAENS TIZIMI JORIY ETILADI
Komplens va korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari barcha davlat organlari va tashkilotlarida tashkil etiladi. Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish vazifalarini amalga oshiruvchi organlarning o'zida ham komplens nazorati tizimi yo'lga qo'yiladi.

7 YAGONA MUVOFIQLASHTIRISH TIZIMI SHAKLLANTIRILDI
Komplens tuzilmalarining faoliyati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Komplens xizmati tomonidan muvofiqlashtirildi. Shu tariqa korruptsiyaga qarshi kurashish tarqoq holda emas, balki yagona tizim asosida amalga oshiriladi.

8 AYRIM KORRUPSION JINOYATLAR UCHUN IMTIYOZLAR BEKOR QILINDI
Korruptsiyaga oid 5 turdagi og'ir jinoyatlar uchun jazoni muddatidan ilgari shartli ozod qilish yoki jazoni yengilroq jazo turi bilan almashtirish tartiblari qo'llanilmaydi.

9 KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLAR XARITASI SHAKLLANTIRILADI
Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligiga davlat organlari va tashkilotlari, hududlar hamda sohalar kesimida korruptsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini shakllantirish va yuritish vazifasi yuklatildi.

10 KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH INSTITUTLARINING VAKOLATLARI KENGAYTIRILDI
"Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunda:
• Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengashning maqomi va vazifalari;
• Hududiy kengashlarning huquqiy maqomi;
• Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligining vakolatlari aniqlandi.
Shuningdek, Agentlikka korruptsiyaning oldini olish, xavf-xatarlarni baholash, jamoatchilik bilan hamkorlik qilish va davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan 8 ta yangi vazifa yuklatildi.

QONUNNING ASOSIY MAQSADI

- Korruptsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash
- Davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytirish
- Korruptsiyaning oldini olishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish
- Jamiyatta korruptsiyaga nisbatan murossasiz munosabatni shakllantirish
- Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish

BIRGALIKDA HALOLLIK JAMIYATINI BARPO ETAMIZ!

Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан 2026-йил 22-июнда “Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини оширишга, коррупцияга оид жиноятлар учун жавобгарлик муқаррарлигини таъминлашга қаратилган қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-1155-сон Қонун имзоланди.

Мазкур Қонун билан:

- коррупцияга оид жиноятларни содир этган шахсларнинг электрон реестри юритилиши;
- “коррупцияга оид жиноятлар” тушунчаси қонунчиликда аниқ белгиланиши;
- давлат органларида комплаенс ва коррупцияга қарши ички назорат тизимлари жорий этилиши;
- комплаенс бўлинмалари фаолиятининг мустақиллиги ва ходимлар хавфсизлиги кафолатланиши;
- айрим коррупцион жиноятлар учун муддатидан ilgari озод қилиш ва жазони енгиллаштириш имкониятлари чекланиши;
- коррупциявий хавф-хатарлар харитасини шакллантириш тизими йўлга қўйилиши каби муҳим

нормалар белгиланди.

Қонун коррупцияга қарши курашишнинг ягона ва тизимли механизмини шакллантириш, давлат органлари фаолиятининг очиқлиги ва ҳисобдорлигини кучайтиришга хизмат қилади.